



**QIZ BOLALARDA JINSIY TAJOVUZ ALOMATLARINI
ANIQLASH: SUD-TIBBIY VA KLINIK YONDASHUVLAR**

**ВЫЯВЛЕНИЕ ПРИЗНАКОВ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ
У ДЕВОЧЕК: СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКИЙ И
КЛИНИЧЕСКИЙ ПОДХОД**

**IDENTIFYING SIGNS OF SEXUAL ABUSE IN GIRLS:
FORENSIC MEDICAL AND CLINICAL APPROACHES**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot Fakulteti

Davolash ishi 4- kurs talabasi

Omonov Azimbek

Xalqaro Turon Fanlar Akademiyasi a'zosi, Alfraganus Universiteti

Tibbiyot Fakulteti Davolash ishi 4- kurs talabasi

Yuldasheva Barnoxonim Maribjanovna

Ilmiy rahbar: Alfraganus universiteti,

Tibbiyot fakulteti zam-dekani

Oydinov Azizjon Ergashevich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qiz bolalar jinsiy zo'rvonlikka uchragan holatlarda yuzaga keladigan klinik va sud-tibbiy belgilar tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida bu muammoning dolzarbligi, shuningdek, diagnostika usullarining zamonaviy va ko'p tarmoqli yondashuvlari yoritiladi. Maqola bolalarning huquqiy himoyasi va zo'rvonlikka qarshi samarali kurashda tibbiyot xodimlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *jinsiy zo'rvonlik, sud-tibbiy ekspertiza, klinik alomatlar, psixologik baholash, himoya mexanizmlari.*



Аннотация: В данной статье анализируются клинические и судебно-медицинские признаки сексуального насилия в отношении девочек. На основе статистических данных раскрывается актуальность проблемы, а также освещаются современные и междисциплинарные подходы к диагностике. Статья подчеркивает необходимость усиления сотрудничества между медицинскими работниками и правоохранительными органами для эффективной защиты прав детей и борьбы с насилием.

Ключевые слова: сексуальное насилие, судебно-медицинская экспертиза, клинические признаки, психологическая оценка, механизмы защиты.

Abstract: This article analyzes the clinical and forensic medical signs of sexual abuse in girls. Based on statistical data, it highlights the relevance of the issue and presents modern and multidisciplinary diagnostic approaches. The article emphasizes the need to strengthen cooperation between medical professionals and law enforcement agencies to ensure children's legal protection and effectively combat sexual violence.

Keywords: sexual abuse, forensic examination, clinical signs, psychological assessment, protection mechanisms.

Kirish: Jinsiy zo‘ravonlik bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Xususan, qiz bolalarda jinsiy tajovuz natijasida aniqlanishi qiyin bo‘lgan nozik belgilar mavjud bo‘lib, ularni aniqlashda tibbiy va huquqiy mexanizmlarning uyg‘unligi zarur.

Ushbu tadqiqot jarayonida Statistik ma’lumotlar ko’rib chiqilganda.

🌐 Jahon miqyosida:

-UNICEF (2023): Har 10 nafar qiz bolaning 1 nafari 18 yoshgacha jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi.

-WHO (2021): Har yili dunyoda 120 millionga yaqin bola (asosan qizlar) jinsiy zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik tahdidi ostida yashaydi.



-Amerika Pediatriya Akademiyasi (AAP): Jinsiy tajovuz holatlari aniqlangan qiz bolalarning 60% dan ortig'i bu haqda ilk uchrashuvda sukut saqlaydi.

O'zbekistonda:

-O'zbekiston Respublikasi IIV 2022-yil ma'lumotiga ko'ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan 274 ta jinsiy tajovuz holati aniqlangan.

-SSV bolalar shifoxonalarining 2023-yil tahliliga ko'ra, 58 nafar qiz bola jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq holda muolajaga yotqizilgan.

Sud-tibbiy va klinik yondashuvlarga qaraganda

1. Tibbiy ko'rik va ekspertiza

Tashqi jinsiy a'zolarida shikastlanishlar: himen yirtilishi, labiya shishishi, qon ketishlar.

-Rektal va anal shikastlar yani, zo'ravonlik turlari farqlanadi.

-UZI va kolposkopiya: invaziv bo'lmagan aniqlash usuli sifatida qo'llaniladi.

2. Biologik va laborator tahlillar

-SPT (Sperma, DNK) topish: PCR usulida aniqlanadi.

-Infeksiyalar (VICH, HPV, GON, Chlamydia): skrining uchun muhim.

-Yosh homiladorlikni aniqlash: β -HCG va UZI yordamida aniqlashlar kuzatilgan.

3. Psixologik baholash.

-Zo'ravonlik belgilarini tan olishda bolalarning psixologik holati muhim rol o'ynaydi.

-Travma alomatlari: kuchli qo'rquv, o'ziga qaramaslik, og'ir tushkunlik holati.

4. Himoya mexanizmlarida esa.

-Sud-tibbiy hujjatlashtirish bunda, ekspert xulosalari protokoli.

-Huquqiy organlarga xabar berish tartibi: "bolani eshitish" usuli asosida olib boriladi.

Taklif va mulohazalar

1. Ekspertlar guruhi tashkil etish – pediatr, ginekolog, psixolog, sud-tibbiy ekspert ishtirokida birgalikda ko'riklar olib boorish.



2. Maxsus treninglar – tibbiyot xodimlari uchun bolalarda jinsiy zo‘ravonlikni aniqlash bo‘yicha muntazam o‘quv dasturlarini muntazam yo‘lga qo‘yish.

3. Maxfiylik va ishonch muhitini yaratish – bola o‘zini xavfsiz his qiladigan sharoitda ko‘rik va suhbat.

4. Mobil ekspert guruhlar – chekka hududlardagi bolalarga tezkor yordam ko‘rsatish tizimini joriy etish.

5. Aloqa liniyalari va ijtimoiy kampaniyalar – “Ismni ayt”, ‘ichki tuyg‘ularingni bo‘lish’ loyihalari orqali bolalarni va o‘smirlarni himoya qilish.

6. Sud-tibbiy ekspertiza jarayonida zamonaviy texnologiyalar, Fotodokumentatsiya: Zamonaviy yuqori aniqlikdagi kameralar bilan tashqi va ichki shikastlar hujjatlashtiriladi. Bu hujjatlar sudda muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Kolposkopik tasvirlar arxiviga nazar solish; Tibbiyot muassasalarida ko‘rilgan holatlar maxfiy raqamli arxivlarda saqlanishi, keyingi tahlil va taqqoslashlar uchun asos bo‘ladi.

AI yordamida tahlil: Ba’zi ilg‘or davlatlarda sud-tibbiy tasvirlarni sun‘iy intellekt vositasida baholash tizimlari joriy qilinmoqda. Bu xatoliklarni kamaytiradi.

7. Jinsiy zo‘ravonlikni aniqlashdagi ijtimoiy kontekst

Mahalliy jamiyatlardagi madaniy to‘siqlar tufayli (or-nomus, sharmandalikdan qo‘rquv) ko‘plab holatlar yashirin qoladi.

Ota-onalar yoki yaqin qarindoshlarning o‘zi zo‘ravonlik sodir etgan hollarda holatlarni yashirish holatlari yuqori.

7. Reabilitatsiya va psixososial yordam

Jinsiy tajovuzga uchragan bolalar uchun psixoterapiya kurslari tashkil etilishi kerak: kognitiv-behavioral terapiya (CBT), o‘yin terapiyasi.

Bolaning ijtimoiy moslashuvini tiklashda psixopedagogik dasturlar samarali: maktabga qaytishi, jamoadagi o‘zini tutish holatlari ustida ishlanadi.

Har bir holatdan so‘ng bola uchun individual reabilitatsiya kartasi tuzilishi kerak.

8. Profilaktika choralarining takomillashtirilishi



Maktablarda seksual zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha alohida o‘quv mashg‘ulotlari (maxfiylik, tananing daxlsizligi, yordam so‘rash) kiritilishi zarur.

Ota-onalarga ma‘rifiy treninglar o‘tkazilishi kerak: bola bilan ishonchli muloqotni o‘rnatish va xavf belgilarini erta aniqlash.

Tibbiyot kollej va universitetlarida seksual zo‘ravonlik diagnostikasi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki: Qiz bolalarda jinsiy zo‘ravonlikni aniqlashda nafaqat tashqi ko‘rinishdagi shikastlar, balki ruhiy izlar va ijtimoiy o‘zgarishlar ham inobatga olinishi lozim. Maqolada bayon etilgan yondashuvlar sud-tibbiy ekspertizani takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan integratsiyalashgan hamkorlikni kuchaytirish hamda profilaktika ishlarini strategik bosqichlarga ajratishda yordam beradi. Bolalar salomatligi va huquqiy daxlsizligini himoya qilish — har bir jamiyatning eng muhim ustuvor vazifasidir

□Xulosa: Qiz bolalarda jinsiy tajovuzni aniqlash va bartaraf etishda sud-tibbiy va klinik yondashuvlarning birgalikdagi qo‘llanilishi dolzarbdir. Tibbiyot xodimlari, psixologlar va tergovchilarning hamkorligi jinoyat isbotida va bola salomatligini tiklashda asosiy rolni o‘ynaydi. Muammoning chuqurligi va ko‘rinmasligi tufayli, har bir mutaxassis bu borada yuqori tayyorgarlikka ega ekanligi jamiyatga samarali natija keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WHO. (2021). GLOBAL STATUS REPORT ON PREVENTING VIOLENCE AGAINST CHILDREN.
2. UNICEF. (2023). HIDDEN IN PLAIN SIGHT: A STATISTICAL ANALYSIS OF VIOLENCE AGAINST CHILDREN.
3. AMERICAN ACADEMY OF PEDIATRICS. (2022). GUIDELINES ON THE EVALUATION OF SEXUAL ABUSE IN CHILDREN.
4. САЛИМОВ И.Х. (2020). СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКАЯ ДИАГНОСТИКА СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ.
5. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV STATISTIK BYULLETENI, 2022.



6. SSV BOLALAR SHIFOXONALARI EPIDEMIOLOGIK AXBOROTLARI, 2023.
7. FIGO (INTERNATIONAL FEDERATION OF GYNECOLOGY AND OBSTETRICS), 2022. SEXUAL VIOLENCE AND REPRODUCTIVE HEALTH.
8. CDC (CENTERS FOR DISEASE CONTROL AND PREVENTION). (2021). CHILD SEXUAL ABUSE PREVENTION GUIDELINES
9. UNODC (2023). STRENGTHENING CRIMINAL JUSTICE RESPONSE TO CHILD SEXUAL ABUSE.
10. INTERNATIONAL SOCIETY FOR THE PREVENTION OF CHILD ABUSE AND NEGLECT (ISPCAN), 2022. GLOBAL SURVEY REPORT ON CHILD PROTECTION SYSTEMS.